**Abstract.** Briefly explained the five pillars of Islam in Uzbek. In his work, Navoi first describes the rulings of Sharia and the rules of Aqeedah. While explaining the essence of faith, Nawai expresses one of the important issues of the science of belief - the eight qualities of Allah. It also explains a number of doctrinal issues such as the possibility of seeing God, the bridge of sin and the scale of sins and rewards, the existence of heaven and hell, the miracles of the prophets, and the intercession of the prophet of the end of time on the Day of Judgment. He was well aware of the existence of poetic works devoted to the sciences of philosophy and mysticism, ethics and religion, mathematics and lexicology in Arabic and Persian poetry. "Siroj ul-muslimin" is one of the first religious-ideological sources created in the Uzbek language. Alisher Navoi first gives the hadiths of our Prophet (pbuh) in Arabic and presents his translation in a poetic way. All hadiths embody the ideals of human morality.

**Keywords:** column, prayer, belief, sect, arcon, intention, muvalot, mash

## **«SIROJUL MUSLIMIN” VA «ARBA'IN” ASARLARIDA G'OYAVIY-BADIIY TAHLILI**

**Eshniyazova Maysara Beknazarovna**

Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Islomning besh ruknini qisqacha tarzda o'zbek tilida bayon etgan. Navoiy asarda dastlab shariat hukmlari hamda aqida qoidalarini bayon qiladi. Navoiy imonning mohiyatini tushuntirar ekan, aqida ilmining muhim masalaridan biri - Alloh taologa oid sakkiz sifatini ifodalaydi. Allohni ko'rish mumkinligi, sirot ko'prigi va gunoh-savoblar tarozusi, jannat va do'zaxning borligi, payg'ambarlar mo'jizalari, oxirzamon payg'ambarining qiyomat kuni shafolat qilishi kabi bir qator aqidaviy masalalarni ham bayon etadi. Arab va fors she'riyatida falsafa va irfon, axloq va din, riyoziyot va lug'atshunoslik fanlariga bag'ishlangan she'riy asarlar mavjudligidan yaxshi xabardor bo'lgan. «Siroj ul-muslimin” o'zbek tilida yaratilgan ilk diniy-aqidaviy manbalarning biri. Alisher Navoiy Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadislarini avval arab tilida beradi va uning tarjimasini she'riy usulda taqdim etadi. Hadislarning barchasi komil inson axloqiga oid qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan.

**Kalit so'zlar:** rukn, ibodat, e'tiqod, mazhab, arkon, niyat, muvolot, mas'h.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N28>

Hijriy 905-yilda (milodiy 1499-1500-y.) yozilgan bo'lib, jami 208 baytdan iborat. Ba'zi manbalarda 197 bayt deyiladi [1]. «Siroj ul-muslimin»da muallif har bir oddiy musulmon bilishi zarur bo'lgan aqidaviy va fiqhiy masalalarni yoritishni maqsad qilib, islomning besh ruknini qisqacha tarzda o'zbek tilida bayon etgan. «Siroj ul-muslimin” kitobning yozilish sababi bayon



etilgan bob, turli diniy mavzularga bag'ishlangan 25 bob va xotimadan iborat. Besh baytli basmala bobida Navoiy avval odob doirasida hamd, na't va salavot aytib, so'ng ushbu asarning yozilish tarixini quyidagicha bayon etadi: sulton Husayn Boyqaroning bevosita rag'bati va himmati tufayli ham ma'naviy obidalar, ham ko'plab binoyi xayrlar qurishga muyassar bo'lgan Navoiyning bu ishlari turli majlis va mahfilda suhbat mavzusiga aylangan. Ana shunday mahfillarning birida Navoiyning xayrixohlaridan biri uning sa'y-harakati tufayli bunyod etilgan «oliy rabot»ni maqtab qoladi. Shu majlisda sultonning yaqin kishilaridan bo'lgan boshqa bir kishi, «she'rlarida ishq-u oshiqlikni madh etib, din-u diyonat uyini xarob etuvchi kishining binoyi xayr qurdirishi hisobga o'tarmikan?» degan ma'noda e'tiroz bildiradi. Bu xabar Navoiyga yetib kelgach, tanqidga qaysidir ma'noda jon borligini anglagan shoir aqida hamda islom arkoni masalalarini oddiy turkiyzabon kishilarga tushunarli til va uslubda sof diniy asar yozishni niyat qiladi. Ammo o'sha paytda turli tashvish va muammolar sabab uning bu niyati amalga oshmay qoladi.

Bir kuni Samarqand shahridan Hirotga kelgan martabali bir kishi Xoja Ahror bilan suhbatlari chog'ida Navoiyni ham esga olgani, «diniy mavzuda ham bir asar yaratsa, yaxshi bo'lardi», deganini aytib qoladi. Natijada, burunroq rejalashtirilgan xayrli ish Xoja Ahrorning taklifi bilan amalga oshadi. Navoiy asarda dastlab shariat hukmlari hamda aqida qoidalarini bayon qiladi. Bu bejiz emas. Chunki shariatda e'tiqod birlamchi, amal e'tiqodga nisbatan ikkilamchi darajada turadi. Xudoga va Uning payg'ambariga e'tiqod qilmasdan turib, shariat ahkomlarini bajarish - ildizi yo'q daraxtni parvarish qilish kabi samarasiz. Shuning uchun har bir inson eng avvalo e'tiqod asoslari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishi lozim:

Amaldin chun burun keldi aqoyid,

Bas, andin yetkuray avval favoyid.

Alloh taolo aql-hushi joyida hamda balog'atga yetgan bandasiga farz qilgan birinchi narsa - imon keltirishdir. Imon keltirish - 1) butun borliqni yo'qdan bor qilgan, o'xshashi va tengi yo'q yakkayu yagona Allohga; 2) Alloh yaratgan farishtalarga; 3) Alloh yuborgan ilohiy kitoblarga; 4) Alloh bandalariga yuborgan payg'ambarlarga; 5) qiyomat kuniga; 6) taqdiri ilohiyga shak-shubhasiz ishonish va unga amal qilish demak.

Navoiy imonning mohiyatini tushuntirar ekan, aqida ilmining muhim masalalaridan biri - Alloh taologa oid sakkiz sifatini ifodalaydi. Shuningdek, musulmon kishi e'tiqod qilishi lozim bo'lgan - qabr azobi, ikki farishtaning savol-javobi, qiyomat kuni Allohni ko'rish mumkinligi, sirot ko'prigi va gunoh-savoblar tarozusi, jannat va do'zaxning borligi, payg'ambarlar mo'jizalari, oxirzamon payg'ambarining qiyomat kuni shafolat qilishi kabi bir qator aqidaviy masalalarni ham bayon etadi. Bu masalalarni qisqacha bo'lsa-da, tilga olishdan asosiy maqsad, avvalo ahli sunnat va jamoaning e'tiqodini bayon etish, shu bahonada maslak va mazhabini ham ochiq-oydin ravishda moturidiya e'tiqodida ekanligini bildirishdir. Chunki aqidaviy masalalar turli mazhabda turlicha amal qilgan. Navoiy bahsga kirishmasdan, o'zi e'tiqod qilgan haqiqatlarni keltirib, xulosa chiqarishni o'quvchiga havola qilishni ma'qul ko'rgan.

«Islom arkonining sharhi» bobi bilan boshlanadigan qismda Navoiy islom dinining besh rukni - shahodat kalimasi, namoz, zakot, ro'za va haj haqida ma'lumot beradi. Shahodat kalimasi -Alloh taoloning yagona ma'bud hamda Muhammad Uning rasuli deb guvohlik berish ekanligini qayd etib, so'ng «saloti xams» - besh mahal farz qilingan namozning shart va tartiblarini keltiradi.

Namozning birinchi sharti poklik bo'lganligi sababli, oldin tahoratning to'rt farzi — yuzni yuvish, ikki qo'lni ikki tirsagi bilan qo'shib yuvish, boshning to'rtidan biriga mas'h tortish, ikki oyoqni to'pig'igacha yuvish haqida ma'lumot beradi. Tahorat sunnatlari 12ta bo'lib, ular — «bismilloh» so'zini aytish, niyat, qo'lni bo'g'implari bilan uch marta yuvish, og'izni uch marta chayish (mazmaza), uch marta burunga suv olib qoqish (istinshoq), soqol va qo'l-oyoq barmoqlarini xilol qilish, har bir a'zoni uch marta yuvish, tahorat tartiblarini o'zgartirmaslik, har bir a'zoni ketma-ket va uzluksiz yuvish (muvolet)dan iborat. Undan so'ng tahoratning 6 ta mustahabi — niyat, muvolet, boshga mas'h tortish, tartib, bo'yinga mas'h tortish, har bir a'zoni yuvishda o'ng tomondan boshlash kabi amallari haqida so'z boradi. Mustahab deb ko'rsatilgan niyat, muvolet, boshga mas'h tortish va tartib aslida sunnat bo'lib, oldingi bobda sunnatlar sifatida qalamga olingan. «Vuzu' noqizlari» bobida tahoratni buzadigan narsalar haqida fikr yuritilgan. Keyingi bobda esa g'uslni vojib qiluvchi sabablar sanab o'tilgan. Undan so'ng g'uslning farzlari (og'izni chayish va burunga suv olib qoqish, so'ng barcha a'zolariga suv quyish) va sunnatlari (avval qo'lni, so'ng avrat a'zolari hamda najosat tekkan joylarni yuvish, tahorat olib, so'ng barcha a'zolariga suv quyish) keltirilgan.

Namoz o'qishga pok bo'lish uchun tahorat va g'usl qilish uchun imkon bo'lmaganida qo'llaniladigan tayammumning farzlari (niyat, poklovchi tuproq jinsini maxsus suratda ikki qo'l va yuzga surtish) va tayammumni buzadigan narsalar (tahoratni buzadigan narsalar hamda ichish uchun zarur bo'lgan suvdan tashqari, tahoratning farzini bajarishga yetarli suv topilishi) haqida ma'lumot berilganidan so'ng namozning farzlari haqida so'z boradi.

Namoz farzlaridan oltitasi namozdan tashqarida bo'lib, ular — tahoratli bo'lish, namoz o'qiladigan joy pokiza bo'lishi, avrat a'zolarini berkitish, namozning qaysi vaqtda ekanligini bilish va shunga rioya etish, qiblagga yuzlanish, niyat qilishdir. «Namozda olti doxil farzning bayoni» bobida takbir, namozda qiyomda bo'lish, qiroat, ruku' qilish, sajdaga borish, oxirida qa'dada o'tirishdan iborat bo'lgan oltita ichki farz bayon etilgan. So'ng yettita vojib amallar — «Fotiha» surasini o'qish va unga yana bir sura zam qilish, belgilangan tartibga rioya qilish, avvalgi ikki rak'atda qiroat qilish, sajda, ruku' va boshqa amallarida bir muddat tin olib turish, uch va to'rt rak'atli namozlarda ikkinchi qa'dada tashahhud o'qish tartib bilan keltirilgan.

Namozning sunnatlariga sharh berarkan, bu sunnatlar jami 20 ta bo'lib, 10 tasi qavliiy (nutqqa tegishli) va 10 tasi fe'liy (amaliy) ekanligini qayd qiladi. Qavliiy sunnatlar — sanoni o'qish, «a'uzu billoh» va «bismilloh»ni aytish, «Fotiha» surasidan keyin «omin» deyish, ruku'dan turishda «Sami'allohu liman hamidah» deyish, uchinchi va to'rtinchi rak'atlarda «Fotiha» surasini o'qish (dastlabki ikki rak'atda «Fotiha» o'qish farz amallardan hisoblanadi), ruku' va sajdada ikki takbir («Allohu akbar» deyishlik) va ikki tasbeh (ruku'da uch marta «Subhona Rabbiyal-'azim», sajdada uch marta «Subhona Rabbiyal-a'lo» deyish)ni aytishlikdan iborat. Fe'liy sunnatlarni ado etish uchun qo'lni quloqqacha ko'tarish, qiyomda o'ng qo'lni chap qo'l ustiga qo'yish va nigohni sajda o'rniga qaratib turish, ruku'da qo'lni tizzaga qo'yib, shu holatda belni tekis tutish, sajdada kaftlar qayerga qo'yilsa, boshni ularning orasiga qo'yish, sajda qilganda qorinni tizzadan, qo'lni oyoqdan uzoq tutish, chap tovon ustiga o'rnashib, o'ng oyoq barmoqlarini qiblagga qaratib o'tirish lozim bo'ladi. Namozlar umumiy hisobda o'n yetti rak'at (bomdod — ikki, peshin va asr — to'rt rak'atdan, shom- uch, xufton — to'rt rak'at) bo'lib, xuftonda uch rak'at vitr namozi vojib qilingan. Sunnat namozlari esa jami o'n ikki rak'atdir:

Ikirar rak'at o'ldi subh ila shom,  
Ul ikki to'rtar angla barcha ayyom.

Islomning uchinchi rukni - zakot haqida ma'lumot berarkan, zakot -moli hisobga olgan kishi uchun farz bo'lib, mol-davlatidan qirqdan bir hissani mustahiq - zakot olishga haqli bo'lgan insonlarga berish buyurilgani, ammo kiyib yurilgan kiyim-kechaklar, zaruriy ehtiyojga qo'llaniladigan ot-ulov va boshqa narsalardan zakot berilmaydi. Navoiy talqinida, zakot - balolarni qaytaruvchi hamda qiyomat kuni gunohlarni yengillatuvchi amallardan hisoblanadi:

Adosida baloning raddi angla,  
Yana qilmoq sabukbor o'zni tongla [2].

Islomning to'rtinchi rukni - ro'za tutish ramazon oyi davomida tongdan shomgacha taom, ichimlik va jinsiy yaqinlikdan uzoq bo'lishlik farz etilgan. Farz ro'zalarda tong otmay turib niyat qilish afzal, nafl ro'zalarda esa peshingacha niyat qilish joiz ekanligi bildirilgan. Xotima qismi asarning yozilish sanasi (hijriy 905/mil. 1499-1500-y.), asarning nomlanishi qayd qilinib, duo istagi bilan tugaydi.

«Siroj ul-muslimin»ning sodda til, ravon uslub hamda mantiqiy izchillik bilan yozilganligi o'rta asrlarda urf bo'lgan «nazmi ta'limiy» an'analarini eslatadi. Arab va fors she'riyatida falsafa va irfon, axloq va din, riyoziyot va lug'atshunoslik fanlariga bag'ishlangan she'riy asarlar mavjudligidan yaxshi xabardor bo'lgan Navoiy «Siroj ul-muslimin» vositasida ushbu an'anani turkiy she'riyatga ham joriy qilishga erishgan. Shuningdek, Husayn Boyqaro olib borayotgan bag'rikenglik siyosati tufayli Hirotda faoliyat olib borayotgan boshqa mazhab va firqalarning aqidalarini kamsitmagan holda o'zi e'tiqod qilgan ahli sunna va jamoaning mo'tadil qarashlarini himoya qilib chiqqan. «Siroj ul-muslimin» o'zbek tilida yaratilgan ilk diniy-aqidaviy manbalarning biri sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Davlatshoh Samarqandiy Alisher Navoiyni «Mir Nizomiddin», ya'ni «dinning nizomi – qonuni» deb bejiz ulug'lamagan. Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlarida, xususan, «Xamsa» dostonlarining muqaddimalarida Allohga hamd, Payg'ambarga na't, munojot va Rasululloh s.a.v madhining mavjudligiyoq bu fikrni tasdiqlaydi. Biz quyida ko'rib chiqadigan asarlarda Alisher Navoiy shariat va tasavvuf ilmining chuqur bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi.

«Arba'in» («Qirq hadis») – hadislarning she'riy tarjimasini bo'lib, an'anaga muvofiq hamd va na't bilan boshlanadi. Asar muqaddimasi – «Sababi ta'lifi manzuma»da Navoiyning ustoz Abdurahmon Jomiy sahih hadislardan 40 tasini tanlab olib, forsiy tilda «Arba'in» yaratganini, lekin turkiy kitobxon bu chashmadan bebahra ekanligini aytib, Jomiyning ruxsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganligini yozadi:

Forsiydonlar aylabon idrok,  
Oriy erdi bu naf'din atrok.  
Istadimki, bu xalq ham bori  
Bo'lmag'aylar bu naf'din oriy.  
Men demakni chu muddao aylab,  
Ul ijozat berib duo aylab.

Shuningdek, muqaddimada Navoiy Jomiy o'z asarini hijriy 886- (milodiy 1486) yilda yaratganligini, u ham tez orada ustozidan ijozat olib, asarni bir-ikki kun ichida tamomlaganini aytadi:

Bir-iki kunki ehtimom ettim,  
Ko'z tutardin burun tamom ettim.

Ushbu ma'lumotdan Alisher Navoiy o'z asarini Jomiy bilan bir davrda yaratgan degan xulosaga kelish mumkin. Alisher Navoiy Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadislarini avval arab tilida beradi va uning tarjimasini she'riy usulda taqdim etadi.

«Arba'in»ning asosiy qismi «Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsasini birodariga ravo ko'rmaguncha, chin mo'min bo'la olmaydi» degan mashhur hadisning navoiyona talqini bilan boshlanadi:

Mo'min ermastur, ulki iymondin  
Ro'zgorida yuz safo ko'rgay.  
Tokki qardoshiga ravo ko'rmas –  
Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.

Tanlangan hadislarining barchasi komil inson axloqiga oid qarashlarni o'zida mujassamlashtirganini ko'rishimiz mumkin. Bu hadislarda insonlarni yaxshilik qilishga davat etadi, yomon illatlardan qaytaradi, umuman olganda, ular insonning hayot va jamiyatdagi vazifasini anglatadi. Masalan, «Insonlarning eng yaxshisi – insonlarga foydasi tegadiganidir» degan hadisni Alisher Navoiy turkiy tilda shunday ifoda etadi:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kindur?  
Eshitib, ayla shubha raf' andin.  
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,  
Yetsa ko'prak ulusqa naf' andin.

Ko'rib o'tganimizdek, ushbu sharh orqali insonning ulusga – jamiyatga xizmat qilishi ulug'lanyapti. Mashhur «Kurashda g'olib chiqqan pahlavon emas, balki g'azabi kelganda o'zini yenga olgan odam pahlavondir» hadisini shoir shunday talqin qiladi:

Emas ul pahlavonki o'z qadrin  
Bosh uza eltibon nigun qilg'ay.  
Pahlavon oni bilki yetsa g'azab  
Nafsi ammorani zabun qilg'ay.

Mazkur hadis insonni o'z nafsi – g'azabi ustidan hokimlik qilishga chaqiradi. Alisher Navoiy buni tarjima qilish orqali kishi jahliga qul bo'lib qolishdan saqlanishi kerakligini aytayapti. Umuman olganda, «Arba'in» asari insonning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu haqda shoir asarning xotima qismida aytib o'tadi:

Erur ul arba'inning avvali hol,  
Ayla bu «Arba'in» bila a'mol.

Asarning umumiy hajmi 108 baytdir. E'tiborli jihati, kirish (hamd va na't) va yakuniy qismlar 5 baytdan iborat. Asosiy qismda keltirilgan she'rlar shakl jihatidan qit'a singari bo'lib, bunda faqat juft misralar qofiyalangan va toq misralar ochiq qoldirilgan:

Tengridin rahm agar tama' qilsang,  
Avval o'lmoq keraksen elga rahim.  
Har kishikim ulusqa rahm etmas,  
Anga rahm aylamas rahimi karim.

«Arba'in» xafif bahrining xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf yoki maqtu' (ruknlari va taqte'i: foilotun mafoilun failun yoki fa'lun – V – – / V – V – / V V – yoki – –) vaznida yaratilgan. Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asari 1481-82 yillar oraliqida yozilgan. Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, vaqf qildirgan yerlari, qurdirgan binolari haqida ma'lumot beruvchi asardir.

«Vaqfiya” hamd, na’t va Sulton Husayn Boyqaro madhini o’zi ichiga olgan kattagina muqaddima bilan boshlanadi. Asarning asosiy qismini shartli ravishda ikki qismga bo’lish mumkin:

1. Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro saroyidagi davlat arbobi sifatidagi faoliyati aks etgan o’rinlar.

2. Navoiyning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari, vaqfiya joylardagi idora usuli, xizmat uchun belgilangan lavozimlar va o’rnatilgan tartib-qoidalar bayoni.

Har bir qism muayyan tarzidagi muqaddima va xotimani o’z ichiga oladi. Asarda Navoiyning mamlakat obodligi va el-yurt farovonligiga uchun aytilgan muhim fikrlari ham o’z ifodasini topgan:

To hirsu havas xirmani barbod o’lmas,  
To nafsu havo qasri baraftod o’lmas.  
To zulmu sitam jonig’a bedod o’lmas,  
El shod o’lmas, mamlakat obod o’lmas.

Alisher Navoiyning «Nazmu-l-javohir” asari nasriy usulda yozilgan muqaddima va Hazrati Alining ikki yuz ellik besh raqam ostida tartiblangan arab tilidagi o’gitlarining turkiy tilda ruboiy shaklida berilgan talqinidan iborat.

Asar muqaddimasi hamd va na’t bilan boshlanib, unda so’z va uning qudrati, inson yaratilishi bilan bog’liq diniy-tasavvufiy qarashlar bayoni keltiriladi. Shuningdek, shoir «Nazmu-l-javohir”ning yozilishi bilan bog’liq ma’lumotlarga to’xtaladi. Har bir fikr sura va hadislardan parchalar keltirib isbotlab boriladi, ularning ta’sirchanligini oshirish uchun to’rt misrasi ham qofiyadosh – taronayi ruboiylardan foydalaniladi. Shuningdek, muqaddimada shoir anchadan buyon Hazrat Alining o’gitlarini she’rga solmoqchi bo’lib yurganini, lekin negadir bunga jur’at qila olmayotganligini aytadi. Shoh Husayn Boyqaro «Risola” bitgach, unga javob tariqasida yozishga qaror qiladi. Aynan «Nasru-l-laoliy”ni Husayn Boyqaro risolasiga javob tarzida tarjima qilishida ham ma’no bo’lib, bu Hazrati Alining Islom olamida tutgan yuksak o’rni bilan izohlanadi. Husayn Boyqaro darajasi Hazrati Alining maqomi bilan qiyos etiladi. Bundan tashqari, o’sha davrda Hazrat Ali hikmatlari forsiy shoirlar tomonidan nazmga solingan bo’lib, Alisher Navoiy ular bilan yaxshi tanish bo’lgan va bu an’anani turkiy tilda amalga oshirishni maqsad qilgan. Alisher Navoiy shohning saxovatini, adolatini mehr bilan ta’riflagach, Hazrat Ali o’gitlari talqinlarini ruboiy tarzida berishini ma’lum qiladi. Mazkur ruboiylarning to’rt misrasi ham qofiyadosh bo’lishida ramziy ma’no bor: shoh taxtining to’rt poyasi uni ko’tarib turadi, Ka’batullohni biz to’rt devori bo’lganligi uchun tasavvur eta olamiz, falakning to’rtinchi qavati quyoshning maskanidir va boshqalar:

Har birini to’rt durri shahvor degil,  
To’rtunchi falakda mehr zarkor degil.  
Rub’i maskunda Ka’bai osor degil,  
Baytul muqaddasqa to’rt devor degil.

So’ng Hazrat Alining o’gitlari «Nasru-l-laoliy” («Sochma durlar”) deb atalgan bo’lsa, bu tarjima «Nazmu-l-javohir” («Nazm javohirlari”) deb nomlanganligi aytilgan. Bu sochma durlarni bir rishtaga – ipga javohir singari tizilganiga ham ishoradir va shoir ushbu baytlarini xalq uchun manfaatli va yoqimli bo’lishini iltijo qilgan mazmundagi 3 ruboiyi taronalarini ilova qiladi. Asarning asosiy qismi o’ziga xos tuzilishga ega. Dastavval, hazrat Alining arab tilidagi falsafiy o’gitlari keltiriladi, so’ng esa turkiy tilda ruboiy shaklidagi talqini beriladi. Biz bu o’rinda tarjima emas, ko’proq talqin atamasini ishlatyapmiz. Chunki Alisher Navoiy to’g’ridan-to’g’ri

tarjimani emas, balki badiiy jihatdan boyitilgan fikrlarni taqdim etadi. «Nazmu-l-javohir»dagi ruboiylar mavzu jihatdan rang-barangdir. Ularda biz hayotning mohiyati, do'stlik va sevgining ulug'vorligi, insoniylikning qadr-qimmatini to'g'risidagi nodir fikrlardan bahramand bo'lamiz. Masalan, 100-ruboiyga hazrat Alining «Do'stlarni ziyorat qilish muhabbatni oshiradi» degan o'g'itlari asos qilib olingan:

Har kimki habibing o'lsa evrul boshig'a,  
Mahv o'l yuzig'a, jonni fido qil qoshig'a,  
Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig'a,  
Tajdidi muhabbat angla bormoq qoshig'a.

Ko'rib turganimizdek, Navoiy hazrati Alining fikrini talqin qilish zamrida bu fikrni to'ldirib, ta'sir quvvatini oshiruvchi fikrlarni beryapti: «Kim do'sting bo'lsa, uning boshiga aylan, ya'ni har bir xayoli, fikridan xabardor bo'l, diydori uchun, qoshiga borish uchun jon fido qil. Agar tosh ursa ham unga o'zingni bag'ishla, uning qoshiga borish muhabbatni ziyoda qilishini angla!» Yoki 237-ruboiyda «Kishining ulug'ligi uning himmatidan bilinadi» degan fikr sharhlanadi:

Har kimsaki iqbol aning yovaridur,  
Har yonki yuz ursa, himmati rahbaridur,  
Himmat duri faxr tojining gavharidur,  
Chun himmati odam o'g'lining sarvaridur.

Umuman olganda, Alisher Navoiy «Nazmu-l-javohir» asarida o'zining dunyo va hayot haqidagi falsafasini yanada aniqroq shaklda yuksak badiiy mahorat bilan namoyon qiladi. Biz bu asar orqali shoirni faylasuf-donishmand qiyofasida ko'ramiz. Alisher Navoiyning «Siroju-l-muslimin» («Musulmonlar nuri») asari sof diniy yo'nalishda bo'lib, islom dini ahkomlarini yoritishga bag'ishlangan. Asar masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, hajman 197 baytdan iborat. «Siroju-l-muslimin» hamd va na't, kitob yozilishining sababi, islomga oid fiqhiy va aqidaviy masalalar sharhi va xotimani o'z ichiga oladi. Hazrat Navoiy, avvalo, Allohga hamd va Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ga salot va salomlarini yo'llagach, mazkur kitob nazmining sababi bayoniga o'tadi. Dastavval sulton Husayn Boyqaroga cheksiz hurmatini izhor etib, bir voqeani bayon qiladi. Unga ko'ra, shoh majlislaridan birida bir nuqtadon inson Husayn Boyqaroga: «Navoiyning she'rlari juda ajoyib, undan bahramand bo'lgan odam yana bahra olmoqni xohlaydi, lekin bundan ne foyda bor?», – degan ma'noda fikr bildiradi. Aslida shoir ko'pdan buyon fiqh va aqidaga doir asar yozishni niyat qilib yurardiyu, azbaroyi yumush ko'pligidan bunga fursat topolmayotgan edi. Samarqanddan bir ulug' insonning Hirotga tashrif buyurib, piri murshid Xoja Ahror Valiyning shoirdan diniy masalalar sharhini yorituvchi kitob yozishni so'raganini aytganidan so'ng Alisher Navoiy katta ishtiyoq bilan ishga kirishadi:

...Chu so'rdi Iso anfosi bu damni,  
Ham ul dam azmig'a yo'ndum qalamni...

Alisher Navoiy «Kitob nazmining sababi» qismida avval aqida sharhini, so'ng farz, vojib, sunnatni bayon etishini, bundan ahli islomga foyda bo'lishini aytadi:

...Ham etkaymen burun sharhi aqoyid,  
Ki, islom ahlig'a bergay favoyid.  
Yana ham farz, ham vojib, sunan ham,  
Neki oriz bo'lur yaxshi, yomon ham...

Asarning asosiy qismida Alisher Navoiy o'zi aytganidek, dastavval aqid hamda shariat hukmlari sharhiga to'xtaladi. Bunda shoir islom ahkomi ikki qism: aqida va amaldan iborat deb yozar ekan, aqida pok bo'lmasa, amalning ahamiyati yuqori bo'lmasligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy imon shartlari sifatida Allohning biru borligiga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg'ambarlarga, oxirat kuniga, qadar taqdirga ishonish kabilarni sanab o'tadi. Keyingi qismda shoir Allohning sifatlarini bayon etadi. Unga ko'ra, mo'min inson Allohning zamon va makondan xoli ekaniga, sherigi yo'qligiga, uning bezavol ilmiga, eshitish va ko'rishiga, kalomiga, taqdir egasi ekaniga ishonishi shart. Hazrat Navoiy, shuningdek, Allohning o'xshashi yo'q, uning qudrati har qanday jismdan xoli bo'lib, bandalar kabi ehtiyojmand emas degan islom aqidasiidagi fikrni bildiradi, bunga isbot tariqasida «Sho'ro» surasidagi 11-oyatni keltiradi. Keyingi bobda shoir islom aqidasiidagi qabr azobi, qabrdagi savol-javob, sirot ko'prigi, tarozi, do'zax, jannat, Rasululloh s.a.v. shifoati, nabiyalar mo'jizalari, avliyolar karomati haq ekanini ta'kidlaydi hamda kohinni tasdiq etish kufr ekanini ham aytib o'tadi. Islom aqidasi shartlari bayonidan so'ng Alisher Navoiy islom ahkomlarini yoritadi. Bunda shoir islom dini farzlari – tahorat, g'usl, namoz, zakot, ramazon ro'zasi, haj bilan bog'liq shariat hukmlarini batafsil bayon etadi. Asarning xotima qismida shoir o'z manzumasi insonlar uchun foydali bo'lishidan umid qilib, musulmonlar dilini ravshan etsin, deya bu kitobga «Siroj ul-muslimin» («Musulmonlar nuri») deb nom qo'yganligini aytadi.

«Asar aruzning hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun mafoiylun fauvlun, chizmasi: V – – / V – – / V – –) vaznida yozilgan. «Munojot» – Ollohga iltijo tarzida yaratilgan nasriy asar bo'lib, «Hamd», «Na't» va «Munojot» deb atalgan uch qismni o'z ichiga oladi. «Hamd»da Allohning buyukligi, abadiyligi haqida so'z borsa, «Na't»da Payg'ambarimiz rasuli akram ta'riflari ketiriladi. Asarning «Munojot» qismi bevosita shoirning Allohdan najot so'rab qilgan iltijolariga bag'ishlangan. Asarning har bir jumlasida Allohga murojaat, ya'ni «ilohi» so'zi bilan boshlanadi. Navoiy o'zini behad gunohkor, yaratganni pok va akram, o'zini cheksiz isyonkor va Xoliqni rahmli va mehribon deb atar ekan, ichki qofiya, tazod, ishtiyoq san'atlarining betakror namunalari shoir his-tuyg'ulari bilan uyg'unlik kasb etganligini ko'ramiz:

Ilohi, akram ul-akramin – sen va men – gunohkor.

Ilohi, arham ar-rohimin – sen va men tiyraro'zgor.

Ilohi, agarchi jurmu isyondin o'zga ishim yo'q,

ammo sendin o'zga ham kishim yo'q...

«Munojot» asari mohiyatan Haqning vasliga tashna, oriflik maqomiga erishgan oshiqning hissiyotlarini o'zida aks ettirib, janr jihatdan nazm va nasr xususiyatlarini namoyon qiladi. Asarning o'ziga xos musiqiy ohangi, saj' usulidan mahorat bilan foydalanilganligi uning badiiy jihatdan qiymatini oshirgan, deb aytish mumkin. Mazkur asar o'zining g'oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan mumtoz adabiyotimizdagi shoh asarlari sifatida o'z o'rniga egadir.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. «Alisher Navoiy. Siroju-l-muslimin» (D.Yusupova maqolasi 2020-y 10 may)
2. Алишер Навоий. Вақфийя / Нашрга тайёрл. И.Шамсимуҳамедов. – Т.: Фан, 1991.
3. Alisher Navoiy «Nazmu-l-javohir» ning 237-ruboyisi
4. Навоий Алишер. Арбаъин. Сирож ул-муслимин.Муножот. Рисолаи тийр андохтан. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. 16-жилд. – Б.260-307.
5. Alisher Navoiyning «Arbain» asaridan

6. Навоий Алишер. Вақфия. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1998. 14-жилд. – Б. 230-269
7. Alisher Navoiy. Siroj ul-muslimin. 149-bet
8. Alisher Navoiy: Qomusiy lug‘at
9. Dilnavoz Yusupova «Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari» 10-may-2020-y
10. Alisher Navoiyning diniy tasavvufiy asarlari
11. Alisher Navoiy. Siroju-l-muslimin” (D.Yusupova maqolasi 2020-y 10 may)



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).